

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO`QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

MILLIY G‘OYA TARIXI VA NAZARIYASI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111100 - Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi MGTN1305		O‘qv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/ modul turi majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya soatlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklam a (soat)
	Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarga milliy g‘oyaning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va negizlarining xalqimiz hayotida tutgan o‘rni va rolini o‘rgatish, O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g‘oya va mafkuraning ahamiyatini ochib berish. Fanning asosiy vazifalari - milliy g‘oyaning insoniyat hayotida tutgan o‘rnini, vazifalarini yoritib berish; - yoshlarning ijtimoiy faoliyatida muqobil g‘oya va mafkuralarga oqilona munosabatni; - xalq orasida milliy g‘oyani targ‘ib-tashviq qilish malakasini tarbiyalash; - yoshlarni ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash. - yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oya omilidan foydalanish va shu kabilar. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Dunyoning TOP-300 talik oliy ta’lim muassasalari ichida 80-o‘rinni egallagan Sautgempton universiteti ijtimoiy fanlar va gumanitar yo‘nalishlarda kuchli ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega. Universitetda ushbu fanga oid bilimlar zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida chuqur o‘rganiladi. Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi - Ushbu fanning o‘qitilishida quyidagi asosiy xususiyatlar mavjud: G‘oyaviy fikrlash: Talabalarda nazariyalarni g‘oyaviy tahlil qilish va asosli fikr bildirish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Global yondashuv: Sharq va G‘arb g‘oyalari tarixi xronologik solishtirilib, madaniyatlararo qarashlar o‘rgatiladi.				

Interaktiv ta'lim: Seminarlar, munozaralar va mustaqil tadqiqotlar orqali amaliy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

II. Asosiy nazariy qism

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

II – MODUL. “Milliy g'oya tarixi va nazariyasi” fanining maqsadi, vazifalari va nazariy asoslari

1-mavzu. “Milliy g'oya tarixi va nazariyasi” fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash masalalari. “Milliy g'oya tarixi va nazariyasi” fanining shakllanishi, obekti va predmeti. “Milliy g'oya tarixi va nazariyasi” obekti xalqimizning tarixiy, milliy –ma'naviy merosi, qadriyatlari, maqsad va mo'ljallari, demokratik prinsiplarini namoyon bo'lishining umumiy va milliy xususiyatlarini o'rganish.

Fanning predmeti – milliy g'oya va mafkuraning tarixiy ildizlari, xalqimizning ma'naviy merosi va qadriyatlarining shakllanishi, umuminsoniy demokratik prinsiplar, milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarining o'zaro munosabati, uni taqozo etuvchi umumiy va o'ziga xos xususiyatlari.

Fanning maqsadi – milliy g'oyaning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va negizlarining xalqimiz hayotida tutgan o'rni va rolini o'rganish, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oya va mafkuraning ahamiyatini ochib berish.

Fanning vazifalari – milliy g'oyaning shakllanish va rivojlanish tarixi va nazariyasi bilan bog'liq asosiy tushuncha va tamoyillar asosida yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning milliy g'oyaga bo'lgan ishonch va e'tiqodini mustahkamlash, Vatanga sadoqat va xalqqa hurmat ruhini oshirish, yoshlarning ogohligini va sezgirligini kuchaytirish hamda ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida birlashtirish va safarbar etish.

2-mavzu. Milliy g'oyaning shakllanish tarixi, uning namoyon bo'lish xususiyatlari

Inson, millat va jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga bo'lgan talab-ehhtiyojlar. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari. Dastlabki g'oyaviy qarashlar va ularning manbalari.

Urug'-qabilachilik davrlarida qabilalarni birlashtirishga xizmat qilgan ilk g'oyalar va qarashlar. Avesto –milliy g'oya shakllanish bosqichidagi muhim manba. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal. Milliy g'oyaning tarixiy negizlaridagi asosiy manbalar va undagi ilg'or g'oyalar. Urxun Enasoy bitiklari, undagi ilg'or

g'oyalar. Xalq og'zaki ijodi namunalari, urf-odat va an'analarda qahramonlik motivlari, milliy va umuminsoniy g'oyalar ko'rinishlari.

Vatan ozodligi yo'lidagi kurashlarda erkinlik, ozodlik, hamjihatlik, vatanparvarlik bilan bog'liq turli g'oyalarning namoyon bo'lishi. O'rta asrlardagi g'oyaviy qarashlar tarixi va rivojlanish xususiyatlari. Ma'rifatparvarlik g'oyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Mustamlakachilik mafkurasi va uning xalqimiz hayotidagi salbiy oqibatlari. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar.

3-mavzu. Mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi

Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonda jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslarining o'zgarishi. Kommunistik g'oyadan voz kechilishi.

Mamlakatimizda jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash, uning huquqiy asoslari. O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslanishi. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi.

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi, uning mazmun va mohiyati.

4-mavzu. Milliy g'oya tipologiyasi

G'oyalar tipologiyasi, milliy g'oya tipologiyasi, ularning mazmun - mohiyati. Milliy g'oyaning mafkuraviy plyuralizmga asoslanishi. Milliy g'oyaning bunyodkor g'oya ekanligi. Uning jamiyatni jamiyat, millatni millat, xalqni xalq qilishdagi o'rni va ahamiyati.

Milliy g'oyaning bosh maqsadi va asosiy g'oyalari. Milliy g'oyaning yot va zararli g'oyalardan farqi, uni aniqlash mezonlari. Milliy g'oyaning umuminsoniy mazmuni: insonparvarligi, tinchliksevarligi va taraqqiyotga yetaklashi.

Islahotlar jarayonida bunyodkorlik g'oyalari va erkinlik tamoyillarini ta'minlash imkoniyatlari. Mustaqillik sharoitida jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslari o'zgarishining mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati.

5-mavzu. O'zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g'oya konsepsiyasi bilan bog'liqligi

Mustaqillik, mustaqil demokratik taraqqiyot, va milliy g'oya tushunchalarining o'zaro munosabati, mazmun -mohiyati.

Mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning milliy-ma'naviy va umuminsoniy demokratik tamoyillari. Strategik maqsadlarni amalga oshirishning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari. O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi g'oyasini amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roli.

Mustaqil demokratik taraqqiyotning milliy g'oya konsepsiyasi bilan mushtarakligi. Harakatlar strategiyasida jamiyat hayoti va davlat qurilishini yanada erkinlashtirish masalalari.

2-modul. Milliy g'oyaning jamiyat hayotidagi tutgan o'rni.

6-mavzu. Milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalarini bog'liqligi

Jamiyat hayoti sohalarini tushunchalari, ma'no-mazmuni. Milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalarida aks etishi. Milliy g'oya va iqtisodiy hayot. Ijtimoiy hayot sohalarini va milliy g'oyaning o'zaro mushtarakligi. Milliy g'oya va ma'naviy hayot.

Fan va ta'lim sohasidagi yutuqlar, uni ijtimoiy hayot sohalariga tatbiq etish. Erkin va farovon hayot buniyod etishda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish. Milliy g'oya bosh maqsadini amalga oshirishda jamiyat hayoti sohalarini rivojlantirishning o'rni. Mustaqillik tufayli jamiyat hayoti sohasida erishilgan yutuqlar. Ularning milliy g'oya g'oya maqsadlari bilan uyg'unligi. Harakatlar strategiyasida ijtimoiy rivojlanish masalalari.

7-mavzu. Milliy g'oyada inson – eng oliy qadriyat

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida insonparvarlik g'oyalarining takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo'lishi. Yangi g'oyalar tizimidagi ustuvor tamoyillar, ularni amalga oshirishning dolzarb vazifalari.

Istiqlolga asoslangan yangi g'oyalar tizimini takomillashtirish, uning ma'naviy ta'sirchanligi va mafkuraviy samarasini oshirish usullari va yo'llari.

Inson, uning sha'ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy kafolatlari. Mustaqillik yillarida inson manfaatlarini, erkinliklariga berilgan e'tibor hamda uning milliy g'oyada o'z ifodasini topishi.

Sud-huquq sohasidagi islohotlar, o'lim jazosining bekor qilinishida insonparvarlik siyosatining namoyon bo'lishi. Milliy g'oya – inson qadr-qimmatini yuksaklarga ko'tarish omili. Milliy g'oyada inson – eng oliy qadriyat ekanligi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasida inson omili masalasi.

8-mavzu. Inson erkinligi, huquq va manfaatlarining milliy g'oyada aks etishi

Inson erkinligi, huquq va manfaatlarini tushunchasi, uning ma'no-mazmuni. Milliy g'oyaning inson erkinligi, huquq va manfaatlarini ustuvorligi prinsipiga asoslanishi. Milliy g'oya – barkamol avlodni tarbiyalash omili. Barkamol avlodga xos bo'lgan xususiyatlar.

Inson manfaatlarini ta'minlash – yuksak qadriyat. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida inson huquqlarining kengayishi, mas'uliyatining ortishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta'minlashning kafolati. Mustaqillik sharoitida milliy g'oyani rivojlantirish, uning ma'naviy ta'sirchanligi va mafkuraviy samaradorligini oshirish jarayonida inson huquq va erkinliklarini takomillashtirish muammosi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasida inson erkinligi, uning huquqlari masalasi.

9-mavzu. Milliy g'oyada siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi tamoyili

Siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Milliy g'oyaning siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi tamoyiliga asoslanishi. Milliy g'oya va siyosiy institutlar xilma-xilligi. Siyosiy plyuralizm, mafkuralar xilma-xilligi. Fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda mafkuraviy plyuralizmning ahamiyati.

Siyosiy partiyalar faolligini oshirish va milliy g'oyani takomillashtirish. Siyosiy institutlar, yondashuvlar xilma-xilligining jamiyat rivojiga ta'siri, uning demokratik xarakteri. Milliy g'oya va mafkura yakkahukmronligiga qarshi kurashning konstitusiyaviy, huquqiy asoslari. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasida jamiyat siyosiy haytini yanada erkinlashtirish vazifalari.

3-modul. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari va uning jamiyat hayotida namoyon bo'lishi.

10-mavzu. Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari

Milliy g'oyaning negizlari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Milliy ma'naviy meros va umuminsoniy demokratik prinsiplar. Ruhiy safarbarlik va ma'naviy jipslikning milliy g'oya negizida shakllanishi.

Milliy g'oya va milliy ma'naviy meros o'rtasidagi uzviylikning nazariy asoslanishi. Umuminsoniy demokratik prinsiplarning milliy g'oyaning muhim negizlaridan biri ekanligi.

Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari. Milliy g'oyaning rivojlanib, yangilanib borishi – umumiy qonuniyat ekanligi. Yangi O'zbekiston orzusi. Yangi O'zbekiston tushunchasi va uning asosiy mezonlari. Yangi O'zbekiston barpo etish strategik vazifa sifatida. Sh.Mirziyoevning "Buyuk kelajak bugundan boshlanadi" da'vatining mohiyati.

11-mavzu. Milliy g'oyaning umummafkuraviy jarayonlar bilan bog'liqligi

Milliy g'oya va umummafkuraviy jarayonlar tushunchalarining o'zaro munosabati, mazmun-mohiyati. Mafkuraviy jarayonlarning turli xil ijtimoiy guruhlar, qatlamlar manfaatlari bilan bog'liqligi, uni anglash darajalari. Mafkuraviy jarayonlarning turli xil g'oyalar, mafkuralar bilan bog'liqligi.

Dunyodagi mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy jarayonlar va mafkuraviy kurashlar. Siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, geosiyosiy maqsadlar. Milliy g'oyaning mafkuraviy kurashlarda muhim omil ekanligi. Turli xil mafkuralar ko'rinishlari.

12-mavzu. Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalari

Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari. Milliy g'oyaning muayyan mamlakat yoki xalq maqsadlari va taraqqiyot yo'li bilan bog'liqligi.

Milliy g'oyani rivojlantirish tushunchasi, ma'no-mazmuni, milliy g'oya rivojlanishining ong va tafakkur, turli xil omillar bilan bog'liqligi. Milliy

g'oyaning rivojlanish mexanizmlari – milliy ma'naviy meros, urf-odat, an'analar va qadriyatlar.

Milliy g'oya ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari. “Fikr – g'oya – mafkura – tizim” munosabati. Milliy g'oya va OAV. Axborotlashgan jamiyatda OAV dagi o'zgarishlar. Axborot- kommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlar va milliy g'oya ta'sirchanligini tobora oshirib borishda mafkuraning o'rni. Ma'naviy -ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish borasidagi vazifalar.

13-mavzu. Milliy g'oyada ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi

Ma'naviy va moddiy hayot tushunchalari ma'no mazmuni. Milliy g'oyaning ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligiga asoslanishi. Moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo'yish, ularning biriga ustunlik berishning samarasiz ekanligi.

Moddiy va ma'naviy omillarni o'zaro uyg'unlashtirish, shu asosda inson, davlat va jamiyat hayotini yuksaltirish masalasi. Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash vazifalari.

14-mavzu. Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash omili

O'zbekiston ko'pmillatli, polietnik davlat ekanligi. Milliy g'oyada turli millatga mansub xalqlarning manfaatlari va maqsadlarining ifodalanishi.

“Millatlararo totuvlik” tushunchasi, uning milliy g'oyada aks etishi. Uning titul millat va mamlakat, davlatni anglatishi. Milliy g'oyaning turli millat ilg'or vakillari ongining mahsuli ekanligi.

Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili. Uni amalga oshirish shart-sharoitlari. Turli millat vakillari va diniy jamoalar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Yoshlarni milliy totuvlik, diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda tarixiy va badiiy manbalardan foydalanish.

15-mavzu. Milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili

“Milliy bag'rikenglik” va “Diniy bag'rikenglik” tushunchalarining ma'no-mazmuni. Milliy bag'rikenglik va ko'pmillatlilik. Turli millatlarning bir-birini tushunishi, milliy madaniyatlarini asrab-avaylash, boshqa xalqlar va millatlar madaniyatini hurmat qilishning zarurligi. Millatlararo muloqot. Din va dinlararo muloqot. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” qonuni vijdon va e'tiqod erkinligi

Ko'pdinlilik, dinlararo bag'rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalarning mazmuni va mohiyati. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili. Milliy g'oya – turli millatlar va din vakillari o'rtasida o'zaro totuvlik va hamjihatlikni ta'minlovchi omil ekanligi.

“Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish” tamoyilining yangi bosqichga ko'tarilishi. Diniy bag'rikenglikning huquqiy asoslari. Sh.Mirziyoev tomonidan

ilgari surilgan “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” rezolyusiyasining qabul etilishi va uning ahamiyati.

III. Seminar mashg’ulotlari bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Milliy g’oya tarixi va nazariyasi” fanining obekti, predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Milliy g’oyaning shakllanish tarixi, uning namoyon bo’lish xususiyatlari
3. Mustaqillik va milliy istiqlool g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi
4. Milliy g’oya tipologiyasi
5. O‘zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g’oya konsepsiyasi bilan bog‘liqligi
6. Milliy g’oyaning jamiyat hayoti sohalari bilan bog‘liqligi
7. Milliy g’oyada inson – eng oliy qadriyat
8. Inson erkinligi, huquq va manfaatlarining milliy g’oyada aks etishi
9. Milliy g’oyada siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi tamoyili
10. Milliy g’oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari
11. Milliy g’oyaning umummafkuraviy jarayonlar bilan bog‘liqligi
12. Milliy g’oyaning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalari
13. Milliy g’oyada ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi
14. Milliy g’oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlilikni ta’minlash omili
15. Milliy g’oyada milliy va diniy bag’rikenglik tamoyili

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo’yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhiiy o‘quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriiy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;

- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Sh.M.Mirziyoyevning "Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yaanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik" asarida jamiyatda ma'naviy muhitni asrash masalalari.
2. Dunyodagi mafkuraviy kurashlar sharoitida milliy g'oyaning zarurligi.
3. Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlilikni ta'minlash omili.
4. Yot va zararli g'oyalar, g'oyaviy kurash tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati.
5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida Prezident qaroridagi vazifalar.
6. Milliy g'oyaning milliy negizlar va umumdemokratik prinsiplarga asoslanishi
7. "Demokratik taraqqiyot" tushunchasi ma'no-mazmuni, jamiyat g'oyaviy mafkuraviy asoslarini demokratik taraqqiyot bilan bog'liqligi.
8. Milliy g'oyaning ilmiy o'rganish, o'qitish va targ'ib-tashviq qilishning nazariy-metodologik asoslari.
9. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasi, bu boradagi g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar va munosabatlar mohiyati.
10. O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot institusional tizimi.
11. O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot institusional tizimi.
12. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarda ilmiy usul-yondoshuvlarni tanlash masalalari, bu boradagi qarashlar va munosabatlar mohiyati
13. Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy negizlari va umumdemokratik prinsiplari.
14. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash shart-sharoitlari.
15. Mafkuraviy jarayonlar tushunchasi, uning ma'no va mazmuni.
16. Milliy g'oyani rivojlantirish tushunchasi, ma'no-mazmuni, milliy g'oya rivojlanishining ong va tafakkur, turli xil omillar bilan bog'liqligi.
17. Milliy g'oyaning rivojlanish mexanizmlari – milliy ma'naviy meros, urf-odat, an'analar va qadriyatlar.
18. Milliy g'oya ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari.
19. "Fikr – g'oya – mafkura – tizim" munosabati.
20. Milliy g'oya va OAV. Axborotlashgan jamiyatda OAV dagi o'zgarishlar.
21. Axborot- kommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlar va milliy g'oya ta'sirchanligini tobora oshirib borishda mafkuraning o'rni.
22. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish borasidagi vazifalar.

	23. “Millatlararo totuvlik” tushunchasi, uning milliy g‘oyada aks etishi. 24. Uning titul millat va mamlakat, davlatni anglatishi. 25. Milliy g‘oyaning turli millat ilg‘or vakillari ongining mahsuli ekanligi. 26. Milliy g‘oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili. 27. Uni amalga oshirish shart-sharoitlari. 28. Turli millat vakillari va diniy jamoalar o‘rtasidagi hamjihatlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. 29. Yoshlarni milliy totuvlik, diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda tarixiy va badiiy manbalardan foydalanish. 30. Ko‘pdinlilik, dinlararo bag‘rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalarning mazmuni va mohiyati. 31. Milliy g‘oyada milliy va diniy bag‘rikenglik tamoyili. 32. Milliy g‘oya – turli millatlar va din vakillari o‘rtasida o‘zaro totuvlik va hamjihatlikni ta’minlovchi omil ekanligi. 33. “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” tamoyilining yangi bosqichga ko‘tarilishi. 34. Diniy bag‘rikenglikning huquqiy asoslari. Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasining qabul etilishi va uning ahamiyati.
3.	V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: - milliy g‘oya tarixi va nazariyasi fani predmeti, maqsad va vazifalari, milliy g‘oyaning shakllanish tarixi va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari, milliy g‘oyaning tipologiyasi, mustaqillik va milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi, milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g‘oya konsepsiyasi bilan mushtarakligi haqida <i>tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim);</i> - milliy g‘oyaning jamiyat hayoti sohalari bilan bog‘liqligini, milliy g‘oyada inson eng oliy qadriyat ekanligi, inson erkinligi, huquq va manfaatlarining milliy g‘oyada aks etishini, milliy g‘oyani asrab-avaylash, uni himoya qilish lozimligini, uning rivojlanib, yangilanib borishi – umumiy qonuniyat ekanligini, milliy g‘oyaning umummafkuraviy jarayonlar bilan bog‘liqligini, uning xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalarini, milliy g‘oyaning O‘zbekiston xalqining ishonch e’tiqodi ekanligini, xalqni xalq, millatni millat qiluvchi ma’naviy kuchga ega ekanligini, O‘zbekistonda g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot institusional tizimining rivojlanish xususiyatlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi (ko‘nikma).</i> - yoshlarning milliy g‘oyaga ishonch va e’tiqodi hamda faolligini oshirishda milliy g‘oyaning zarurligini anglab yetish, milliy g‘oyani ilmiy o‘rganish, o‘qitish va targ‘ib-tashviq qilish vositalarini qo‘llay olish, yot va zararli

	g'oyalarni farqlash, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarda turli tahdidlarga nisbatan ogohlik va dahldorlik tuyg'ularini tarbiyalab borish, yoshlarni milliy g'oyaning asosiy tushunchalariga ishonch ruhida tarbiyalay olish ko'niklariga ega bo'lishi lozim. (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b 2. Aminova M. va boshqalar. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. T. Yangi asr avlodi. 2021 y. 3. Aminova M. va boshqalar Globallashuv va hozirgi davr. Monografiya. T. Yangi asr avlodi. 2021 y. 4. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2022 yil. 5. Oripov E.Sh. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. Elektron darslik. 2021 yil. 6. Oripov E.Sh. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. Elektron darslik. 2021 yil. 7. Baratbayev B. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (O'quv qo'llanma) "Farg'ona" nashriyoti, 2020 yil. 8. Aminova M. Ma'naviyatshunoslik. Elektron darslik. 2024 y. Qo'shimcha adabiyotlar: 9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017. 10. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan Yeng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018

	11. Abdurahmonov A., Boydadaev M., Bozorov E. Din va siyosat. Namangan, «Namangan», 2001. 12. Nazarov Q., Kadirov M., Yuldasheva M. Falsafa. O'quv qo'llanma. Toshkent. Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. 13. Ортиков.О. Философия. Учебное пособие. Андижан. 2024. 14. Sapaxonov X., Yuldasheva M. Etika-estetika asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2004 15. Xodjayev O. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2024 16. Baratboyev B. O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. Ilm va fan. 2023. 17. Baratbayev B. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (O'quv qo'llanma) "Farg'ona" nashriyoti, 2020 yil. 18. Baratboyev B., Xaydarova D. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Toshkent. Ilm va fan. 2023. 19. Hasanov Sh. Ma'naviyat va huquq asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018. Axborot manbalari: 1. http://www.lex.uz 2. http://www.senat.uz 3. http://www.gov.uz 4. http://www.mtdp.uz 7. http://www.parliament.uz 8. http://www.ziynet.uz 9. https://www.southampton.ac.uk/programmespecs/2425-8910-bsc-politics-and-international-relations
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: Z.Boytemirova – Qo`qon DU, Milliy g'oya va huquq kafedrası mudiri, dotsent.</p> <p>A. Meliboyev – Qo`qon DU, Milliy g'oya va huquq kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.d (PhD)
9.	Taqrizchi: I. Siddiqov - Farg'ona davlat universiteti Falsafa va huquq kafedrası prof, f.f.d (DSc)